



UO'T: 635.656: 631.527

NO'XATNING KOLLEKSIYA PITOMNIGIDA O'RGANILAYOTGAN NAV NAMUNALARI O'SUV DAVRI VA O'SIMLIK BO'Y UZUNLIGI ORASIDAGI KORRELYATSION BOG'LANISHLAR

Mamaraximov Bunyod Ikromovich 
q.x.f.d., professor

Naxalbaev Jaxangir Tursunbayevich 
q.x.f.f.d.(PhD), k.i.x.

Mamatqulov Abduraxmon Tursunbayevich 
mustaqil izlanuvchi

Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti

Annotasiya. Ushbu maqolada no'xatning kolleksiya pitomnigida o'rganilgan nav namunalri o'suv davri va o'simlik bo'y uzunligi orasidagi korrelyatsion bog'lanishlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: no'xat, nav namuna, o'simlik bo'y uzunligi, ostki dukkakning erdan balandligi, o'suv davri.

Аннотация. В статье представлены корреляционные связи между периодом роста и высотой растений сортов нута, изучаемых в коллекционном питомнике.

Ключевые слова: Нут, сорт, высота растения, высота стручка над землей, вегетационный период.

Abstract. The article presents correlations between the growth period and plant height of chickpea varieties studied in a collection nursery.

Keywords: chickpea, variety, plant height, pod height above ground.

KIRISH.

Dukkakli ekinlar, jumladan no'xat yer ustki organlari poyasining yuqori qismi gul bilan tugamaydi. Binobarin, no'xat o'simligi tashqi muhitning qulay sharoitlariga qarab cheklanmagan holda uzoq vaqt o'sishi mumkin. O'simliklarda

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

tashqi muhit omillari ta'sirida, ya'ni tuproq namligining kamayishi va havo haroratining ko'tarilishi hamda o'simlik rivojlanishining generativ davrining boshlanishi bilan o'sish sur'ati (tezligi) sezilarli darajada qisqaradi. O'simlikning o'sish tezligiga tashqi muhit omillaridan ko'proq yorug'lik, issiqlik va namlik ta'sir etishi ko'p yillik tajribalarda o'z tasdig'ini topgan [6].

No'xat o'simligining yangi navlarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan ko'pgina mamlakat olimlari o'simliklar bo'yining balandligi muhim ahamiyatga ekanligini e'tirof etgan holda ona-otalik shakllarga doimo baland bo'yli poyasi jips joylashgan nav namunalarni tanlab olganlar [4]. Rustamov S o'z ilmiy izlanishlarida no'xatning baland bo'yiligi va kechpisharligi orasida ijobiy korrelyatsion bog'lanish borligini ta'kidlab o'tgan [5].

O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarida geografik jihatdan turli ekotiplarga mansub (Osiyo, O'rta yer dengizi bo'yi, Yevropa) bo'lgan no'xat nav namunalari o'rganilganda o'suv davrlari mobaynida bu ekotiplarga mansub o'simliklarning o'sish sur'atlari turlicha bo'lgan. Bunda eng yuqori ko'rsatkich Yevropa ekotipida kuzatilib, uning o'simlik bo'yi 87 sm ga yetgan yoki Osiyo ekotipiga nisbatan 21,3 sm va O'rta yer dengizi ekotipiga nisbatan esa 19,7 sm baland bo'lganligi qayd etilgan [7].

MATERIALLAR VA USLUBLAR.

Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti dukkakli don ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi laboratoriyasining no'xatning kolleksiya pitomnigida o'rganilayotgan 118 ta no'xat nav namunalari tajriba materiallari bo'lib hisoblanadi.

Tajriba kuzatuvlari, tahlillar DDEITI G'allaorol ITS [1], Butunittifoq o'simlikshunoslik instituti [2] uslubiy qo'llanmalari hamda Sobiq Butunittifoq o'simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti klassifikatori (RODA CICER L.1980) [3] ma'lumotlari bo'yicha tahlil qilindi.

Biometrik tahlil natijalariga ko'ra no'xat nav namunalari bo'y uzunligi bo'yicha 5 ta guruhga ajratildi. Bo'y uzunligi <25,0 sm bo'lgan nav namunalari juda past bo'yli, 25,1-30,0 sm past bo'yli, 30,1-35,0 sm o'rta bo'yli, 35,1-40,0 sm baland bo'yli, 40,1 sm dan yuqori bo'y uzunligiga ega bo'lganlari juda baland bo'yli guruhga ajratildi.

Klassifikator (RODA CICER L.1980) - uslubiy qo'llanmasida no'xat nav namunalari o'suv davri bo'yicha andozaga nisbatan juda ertapishar (>5 kun oldin pishadigan), ertapishar (3-5 kun oldin pishadigan), o'rtapishar (2 kungacha oldin, teng kunda va iki kungacha keyin pishadigan), kechpishar (3-7 kun keyin pishadigan), juda kechpisharligi (7< kun) bo'yicha guruhlariga bo'linishi ko'rsatib o'tilgan.

NATIJALAR VA MUNOZARA.

Biometrik tahlil natijalariga ko'ra juda past bo'yli guruhga 13 ta, past bo'yli guruhga 60 ta, o'rta bo'yli guruhga 33 ta, baland bo'yli guruhga 6 ta nav namunalari

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

mansub ekanligi aniqlangan bo'lsa, juda baland bo'yli guruhga mansub nav namunalar aniqlanmadi.

Ostki dukkagi yerdan 15 smdan pastda joylashgan nav namunalar 40 tani, 15-25 sm o'rtaliqda joylashgan nav namunalar 78 tani tashkil etdi. Ostki dukkagi yerdan 25 smdan balandda joylashgan nav namunalar bu yilgi qishloq xo'jalik yilida kuzatilmadi (1-jadval).

1-jadval

No'xatning kolleksiya pitomnigaida o'rganilgan va tanlab olingan nav namunalar (G'allaorol, 2025 yil)

№	Nav namunalar nomi	O'simlik bo'y uzunligi, sm	Ostki dukkakning yerdan balandligi, sm	O'suv davri, kun	Hosildorligi, g/m ²
1	Yulduz (and)	24,6	14,0	78	54
2	FLIP 12-280C	37,0	20,4	85	39
3	FLIP 17-68C	36,6	21,0	85	50
4	FLIP 13-355C	36,2	20,2	77	26
5	ILC3279	36,0	20,2	86	39
6	FLIP 17-67C	35,4	18,6	75	55
7	FLIP 10-368C	34,8	15,2	81	65
8	FLIP 17-76C	34,2	16,8	77	69
9	FLIP 12-89C	34,2	17,2	76	54
10	FLIP 17-64C	33,8	19,0	85	65
11	FLIP 11-227C	33,6	14,8	85	66

No'xat nav namunalarining o'suv davri davomiyligi ushbu qishloq xo'jaligi yilida 73-87 kunni tashkil etdi. Andoza navga nisbatan ertapishar 18 ta nav namuna, o'rtapishar 29 ta nav namuna, kechpishar 60 ta nav namuna, juda kechpishar 11 ta nav namuna ekanligi fenologik kuzatuvlar natijasiga ko'ra aniqlandi.

XULOSA.

Kuzatuv va tahlil natijalariga ko'ra o'simlik bo'y uzunligi va o'suv davri orasida korrelyasion bog'lanish $r=0,18$ ni tashkil etdi. O'simlik bo'y uzunligi va don hosildorligi orasida kuchsiz korrelyasion bog'lanish $r=0,14$ ekanligi aniqlandi.

O'rganilgan no'xat nav namunalari orasidan FLIP 10-368 C (65 g/m^2), FLIP 17-76 C (69 g/m^2) don hosildorligi andoza Yulduz naviga nisbatan (69 g/m^2) yuqori bo'lganligi hamda o'simlik bo'y uzunligining 33,0 smdan baland, ostki dukkakning yerdan balandligi 15,0 smdan tepada joylashganligi uchun yuqori hosildor nav namunalar sifatida tanlab olindi.

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

ADABIYOTLAR

1. Amanov A.A. va boshqalar. Donli ekinlar seleksiyasi va boshlang'ich urug'chiligi bo'yicha uslubiy qo'llanma. G'allaorol 2004 yil.
2. Изучение мировой коллекции пшеницы. Методические указания. ВИР. Ленинград 1984.
3. Классификатор (RODA CICER L.) (Нут). Ленинград 1980.
4. Мирошниченко И.И., Павлова А.М. Нут. Москва-Ленинград.-1953.с. 155.
5. Рустамов С. К вопросу селекции нута в горной зоне богары. //Пути повышения урожая зерновых, зернобобовых и кормовых культур при интенсивной технологии. Ташкент.-1989. с. 58-61.
6. Naxalbayev J. Mamatqulov I., Doschanov J., S.Yusupova. No'xatning kolleksiya pitomnigidan uzun bo'yli nav namunalarini tanlash. Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi. -3/1-2025. B 66-68.
7. Hamdamov I.H., Shukurullaev P.Sh., Mustanov S.B. Sug'oriladigan yerlarda xo'raki no'xatning navlarini sinash. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida q\h-da ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirish omillari. Professor o'qituvchi va aspirantlar 53- ilmiy hisobot konferensiya ma'ruzalar to'plami. Samarqand. 1995. b. 24.